

VEB SAYT YARATISHGA MO'LJALLANGAN DASTURLASH TILLARINI TADQIQ QILISH SAMARADORLIGI

Matrasulova_Nafosat Matrasulovna

Osiyo xalqaro universiteti TAT-25 MM102-guruh magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda veb-sayt yaratishga mo'ljallangan dasturlash tillari, ularning turlari, vazifalari va qo'llanilish jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida front-end va back-end texnologiyalari, xususan HTML, CSS, JavaScript kabi mijoz tomoni tillari hamda PHP, Python, Node.js kabi server tomoni dasturlash tillarining asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy veb-dasturlashda keng qo'llanilayotgan freymvorklar va ularning samaradorlikka ta'siri o'rganiladi. Veb-sayt yaratish jarayonida har bir texnologiyaning o'rni, afzalliklari va qo'llanish sohalari yoritilib, web-dasturchilar uchun zarur bo'lgan bilimlar majmui haqida xulosa chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *Veb-dasturlash, HTML, CSS, JavaScript, PHP, Python, Node.js, Frontend, Backend, Freymvork, Web texnologiyalar, Django, Laravel, Dasturlash tillari, Veb-sayt yaratish.*

KIRISH

Veb-saytlar zamonaviy axborot jamiyatining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ular orqali ma'lumot almashish, xizmat ko'rsatish va biznes jarayonlarni onlayn amalga oshirish mumkin. Web-dasturlash — bu internet orqali ishlaydigan saytlar va ilovalarni yaratish jarayonidir va u bir qator dasturlash tillari va texnologiyalarini talab qiladi. Bu tillar birgalikda har bir veb-sahifaning ko'rinishi, tuzilishi va foydalanuvchi bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, internet resurslari va web sahifalar zamonaviy biznes, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Web sahifalarni yaratish jarayonida maxsus dasturlar va vositalardan foydalaniladi. Ushbu maqolada web sahifalarni yaratish uchun eng ommabop dasturlar va texnologiyalar haqida so'z yuritiladi. Web sahifalarni yaratishning texnologik asosi Web sahifalarni yaratish asosan quyidagi texnologiyalarga tayanadi: HTML (HyperText Markup Language): Web sahifaning asosiy tuzilmasini yaratish uchun ishlatiladi. CSS (Cascading Style Sheets): Sahifaga dizayn va vizual ko'rinish berish vositasi. JavaScript: Interaktivlik va dinamik harakatlarni qo'shish imkonini beradi. Bundan tashqari, Bootstrap, jQuery kabi ramkalar (framework) dasturchilarning ishini yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Ommabop dasturlar va platformalar Bugungi kunda web




sahifalarni yaratish uchun quyidagi dasturlar va platformalar ommalashgan: Visual Studio Code – bu matn muharriri dasturchilar orasida eng ommabop dasturlardan biri hisoblanadi. Uning kengaytmalar kutubxonasi va ko‘p funksiyali muhiti web dasturchilar uchun juda qulay. WordPress – WordPress – dunyodagi eng mashhur kontent boshqarish tizimlaridan biri. Undan foydalangan holda dasturlash bilimiga ega bo‘lmagan holda ham web sahifa yaratish mumkin. Adobe Dreamweaver – bu vizual interfeys orqali web sahifalar yaratishga mo‘ljallangan dastur. U HTML va CSS kodlarini avtomatik yaratish funksiyasiga ega. Dastlab veb sahifa uchun kerak bo‘ladigan materiallar yig‘ib olinadi. Veb sahifaning mazmunini tashkil etuvchi materiallar uning kontenti (content - mazmun degan ma‘noni bildiradi) deb ataladi. Kontent ixtiyoriy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Oilaviy fotoalbomdagi rasmlar, she‘riy mashqlar, biron muammo haqidagi shaxsiy fikrlar, sayroqi qushlarning xonishi, kichkintoyning birinchi qadam bosishi tushirilgan videolavha va boshqa narsalar sayt kontenti tarkibiga kirishi mumkin. Matn ixtiyoriy muharrirda, masalan MS Word da tayyorlanishi mumkin. Yaxshi tanlangan bir necha tasvir veb sahifani jonlantirib yuboradi. Masalan, oilaviy sahifada oila a‘zolarining birgalikda tushgan suratlari yaxshi ko‘rinadi. Rangli navigatsiya tugmalari bir tomondan sahifada chiroyli ko‘rinsa, ikkinchi tomondan foydalanuvchiga saytda adashib qolmaslik imkonini yaratadi. Internetda tasvir muharrirlari juda ko‘p bo‘lib, ularning ba‘zilari bepul, ba‘zilarini ma‘lum vaqtgacha bepul ishlatish mumkin. Bir qator dasturlar ham HTML kodini yozmasdan, matn, tasvir va boshqa ko‘rinishdagi ma‘lumotlardan veb sahifa yaratishga mo‘ljallangan. Bunday dasturlarga misol sifatida Microsoft kompaniyasining Front Page dasturini keltirish mumkin. Lekin bunday dasturlar bilan ishlaganda ham HTML kodini bilish zarar qilmaydi. Yangi sahifani internetda chop etishdan oldin uni brauzerda ko‘rib va kamchiliklarini to‘g‘rilab chiqish kerak. Iloji bo‘lsa, yangi veb sahifani turli brauzerlarda ko‘rib chiqishdan erinmaslik kerak, chunki turli brauzerlar, umuman olganda, sahifalarni turlicha ko‘rsatadi. Agar sahifaga ovoz yoki video materiallarni joylash mo‘ljallangan bo‘lsa, ularni avval raqamli ko‘rinishga o‘tkazib olish yoki raqamli materiallardan foydalanish kerak. Bunday materiallarning hajmi ancha katta bo‘lib, ularni yuklash uchun ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi. Ba‘zan foydalanuvchilar bunday fayllarning yuklanishini kutmay, sahifadan chiqib ketadilar. Shu sababli, bunday materiallardan foydalanishda chegarani bilish kerak. Bundan tashqari, bunday materiallarni internet uchun mo‘ljallangan formatlarga o‘tkazib, iloji boricha ularning hajmini qisqartirish kerak.



Serverda ishlaydigan kod, ma'lumotlar bazasi bilan aloqalar va biznes logikasini amalga oshirish uchun quyidagi tillar ishlatiladi:

- PHP – dinamik web-saytlar yaratish uchun keng qo'llaniladigan server-tomon tili.
- Python – tushunarli sintaksisga ega va Django kabi web-freymvorklar orqali web-ilovalarni tez yaratishda qulay.
- Node.js – JavaScript asosida server-tomon kodni bajarishga imkon beruvchi platforma.
- Ruby, ASP.NET va boshqalar ham mavjud bo'lib, har birining o'z afzalliklari va qo'llanish sohalari bor.



XULOSA

Veb-sayt yaratish jarayoni bir nechta dasturlash tillarini o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llashni talab qiladi. Har bir tilning o'ziga xos roli bor: HTML, CSS, JavaScript front-endni, server-tomon tillar esa ma'lumotlarni qayta ishlashni ta'minlaydi. Ushbu tillarni o'rganish web-dasturchi uchun mustahkam bilimlar bazasini yaratadi. Web dasturchi bo'lish ko'pincha "zamonaviy kasb" deb qabul qilinadi va bu yoshlar orasida katta e'tibor qozonadi. Ularga zamonaviy, ijodkor va muvaffaqiyatli inson sifatida qaraladi. Web dasturlash yoshlar uchun nafaqat kasbiy imkoniyat, balki o'zlarini rivojlantirish, global loyihalarda ishtirok etish va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov T. S. HTML (HyperText Markup Language) veb-sahifalarni yaratish. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI. 2024. bestpublication.org
2. Ostanaqulov X. M. Veb-saytlarni optimallashtirishda HTML, CSS va JavaScriptning SEOga ta'siri. IQRO jurnal. 2025. [Inlibrary](http://inlibrary.uz)
3. Dasturlash tillari turlari. Salesway.uz. salesway.uz
4. Web dasturlash uchun tillar. Tashqi manba PDF. [Профиль Университета](http://university.ru)
5. Veb sayt texnologiyalari – backend va frontend. Innosoft.uz. [Innosoft](http://innosoft.uz)
6. HTML, CSS va JavaScript asoslari. GDU ta'lim materiali. portal.guldu.uz
7. Yusupjonovna S. E. TREATMENT APPROACHES FOR SENSORINEURAL HEARING LOSS //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 157-158.
8. Yusupjonovna, S. E. (2025). TREATMENT APPROACHES FOR SENSORINEURAL HEARING LOSS. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 2(5), 157-158.
9. Shodieva, E. (2024). OTOMYCOSIS DISEASE AND ITS ETIOTROPIC TREATMENT METHODS. Science and innovation, 3(D1), 155-161.
10. Усманова, Н. А., & Шодиева, Э. Ю. (2021). ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ ОТОМИКОЗА. Re-health journal, (2 (10)), 97-99.
11. Shodieva, E. (2024). OTOMYCOSIS DISEASE AND ITS ETIOTROPIC TREATMENT METHODS. Science and innovation, 3(D1), 155-161.

